

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:30 (67091)

2016-yil

25-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim,
jonim senga fido,
O'zbekistonim!



«KOINOT» DAGI
SAYYORALARGA

SAYOHAT

(4-bet)

Sh. MAXMADIYEV o'lgan suratlar

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

Respublika ijodiy ishlar tanloviga

QUYOSHNING QUVONCHLI QUTLOVI

Madhiyamizning «Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot», deya yangrashidan jonajon yurtimiz quyosh nurlariga konligini his etamiz. Kundan kun yashnab borayotgan benazir tuprog'imizga ko'z tegmasin, deymiz. Biz buyuk yurt farzandlarimiz, deya iftixor ila ona Vatan bayrog'ini ko'kka ko'targan yoshlarimizning quvonchi ichiga sig'maydi. Mustaqilligimizning 25 yillik to'yi oldidan joylarda o'tkazilayotgan tadbirlarda bo'lganimizda, bunga guvohmiz. «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanlovida o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etayotgan o'quvchilarimizning taassurotlarga boy ko'ngil kechinmalarida bepoyon dasht-u dalalarimizda yoz hukm surayotgan to'kin-sochin pallalar o'z aksini topgan.

Bu yil yoz har galgidan-da issiqroq keldi. Chorak asr bilan yuzlashgan Istiqlol bayramimizni quvonch bilan qutlashga chog'langan quyoshning yuzi yanada yorishdi, desak mumolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda tabiat qo'ynida ta'til gashtini surayotgan o'quvchilarimizga borliq Vatan darsini o'tayotgan bo'lsa, ajabmas.

Aziz o'quvchi! Kundalik daftaringizga yoz davomida jo'shib yozgan sarxil taassurotlaringizni tahririyatimizga yuborib, bizlarni ham xushnud etasiz, degan umiddamiz.

AXTAMQULI

Diyora TOSHQULOVA,
Navoiy viloyati,
Navbahor tumanidagi
5-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi



ISTIQLOLIM

Bugun bizga hatto hilol,
Havas bilan boqmoqda.
Bizni qutlagan Istiqlol,
Yurakka o't yoqmoqda.

Ilm-fanning cho'qqilarin,
Zabt etamiz, albatta.
Qoldiramiz o'zbek nomini,
Mangu abadiyatga.

Qo'lda o'tli qalamim,
Kuylayman lol-u hayron.
Sensan aziz Vatanim,
Jonajon O'zbekiston!

Sitora ABDURAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi
tumanidagi 63-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



Shohrux ABDULLAYEV,
Xorazm viloyati,
Urganch tumanidagi
19-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

Kimyoxon
JO'RAYEVA,
Farg'ona
viloyati, Marg'i-
lon shahridagi
4-umumta'lim mak-
tabining 7-«B» sinf
o'quvchisi



Shohjahon
ANVAROV,
Jizzax shahrida-
gi 11-umumta'lim
maktabining 8-sinf
o'quvchisi



Ixtiyorbek AMINBOYEV,
Urganch shahar,
San'atga ixtisos-
lashirilgan maktab-
internatining 9-sinf
o'quvchisi

«Tong yulduzi» a'lochilari»

ENG YOSH INSHO MUALLIFI

«Tong yulduzi» a'lochilari» haqida so'z borganda, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi E'zoza Usmonxo'jayevani ham doim esga olamiz.

U onasi bilan ilk bor tahririyatga kirib kelganida, boshlang'ich sinfda o'qirdi. Jamalaksoch bu qizaloq o'zining odobi, savollarimizga bergan burro javoblari bilan mehrimizni qozondi. Dastlab kichik she'rilar mashq qilgan E'zoza keyinchalik turli mavzuda jazzi maqolalar ham yoza boshladi va gazetaning faol mualliflaridan biriga aylandi.

Kitob o'qishni juda yoqtiradigan bu iqtidorli qizimizning orzusi – kelajakda jurnalist bo'lish.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablari o'quvchilari



o'rtasida tashkil etilgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» mavzusida o'tkazilgan ijodiy ishlar tanlovining shahar bosqichida yozgan inshosi 1-o'ringa loyiq topilib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan edi. Mazkur tanlovning mamlakat bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etgani uchun «Eng yosh insho muallifi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

E'zozaning bu muvaffaqiyati kelgusida qo'lga kiritilajak katta yutuqlarning debochasi bo'lsa, ajabmas.

D. HOTAMOVA

YOSHLARNING QO'SH QANOTI

Bugungi kunda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning orzulariga qanot bo'layotgan yirik jamoat tashkilotlaridan biriga aylanib ulgurd. Ayni chog'da respublikamiz miqyosida ikki yarim yilda bir marotaba o'tkaziladigan hisobot-saylovning navbatdagi VII konferensiyasi joylarda ko'tarinki ruhda o'tkazilayotir.



Jizzax viloyati, Arnasoy tumanida joylashgan 5-bola-lar musiqa va san'at maktabida bo'lib o'tgan anjuman-da tuman Kengashi va Nazorat taftish komissiyasining o'tgan davrdagi faoliyati yuzasidan hisoboti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan navbatdagi vazifalari to'g'risida so'z bordi.

«Kamolot» YOIH Jizzax viloyati Kengashi raisi Orifjon Shukurov tuman Kengashi faoliyati to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni alohida ta'kidladi. Tadbir yakunida faol va eng yaxshi boshlang'ich tashkilot yetakchilari sertifikat, dip-lom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Rustam NURMATOV

Bu voqea yozning jazirama kunlaridan birida bo'lib o'tgandi.

Har yili maktabda o'qishlar tugashi bilan qishloqda yashaydigan buvijonimnikiga oshiqardim. U kishi mehribon, shirinso'z, bag'ri keng inson edi. Maktablarda darslar tugagach, buvijonim yo'linga ko'z tikib, kun sanarkanlar. Qishloqda dam olish juda mazza. Toza havo, rayhon hidi ufurib turgan katta hovli.

Tongda xo'roz qichqirishi bilan qishloqda hayot qay-naydi. Kimdir molini haydab yaylovga shoshgan, yana biron qishga pichan g'am-lash niyatida o'roqni yelkasi-ga ilib, adirga yo'l oladi. Bu-vim kech tushgunga qadar hovlida kuymalanib yura-veradi. Ana shunaqa qish-loq odamlari...

Esimda, o'sha yili yoz issiq keldi. Buvijonim o'tob uradi, deb ko'chaga chiqishga rux-sat bermasdilar. Bunday paytlarda qo'shni qizlar bi-lan yig'ilishib, o'sma, xina qo'yardik. Zerikkanimizda hovlida to'ptosh o'ynash-ni ham kanda qilmasdik.



(Voqeiy hikoya)

QISHLOQDA KECHGAN TA'TIL

O'ynay-o'ynay issiq eltib, uxlab qolardik...

Bir kuni garmsel turdi. Buvijonim ko'chaga chiqma, deb turib oldilar. Shamol

esib turgani uchun ichkariga kirmay so'rida dam olishim-ga ruxsat berdilar. Ancha paytgacha kitob o'qib

ning dastyor qizim», deb erkalaydi. Shunday xayollar bilan chelak ko'tarib, katta ariqqa qarab yo'l oldim. Peshin mahali bo'lgani uchun ko'chada hech bir zog' ko'rinmaydi. Qish kun-larida ham suv olish qulay bo'lishi uchun ariq bo'yiga temirdan katta tutqich o'rnatil-gandi. Tutqichni ush-lab, zinapoyalardan asta tushib, chelakni suvga botirgandim, oyog'im toyib, ariqqa tushib ketdim. Chelak qo'limdan chiqib ket-gan, ammo moslamani ushlab turgan qo'limni qo'yib yubormas-dim. Bu shunday tez ro'y berdiki, bir zumda shovullab oqayotgan suv ichida ko'rinmay qoldim. Yordamga chaqiray desam, shamolda ovozim chiqmaydi. Suvning shid-datidan og'zim ham suvga to'lib, hushimni yo'qotayot-

Bizga maktub yo'llabsiz...


AJDODLARGA EHTIROM

Yozgi ta'til barchamiz uchun birdek yoqimli, orombaxsh. Ayni kunlarda kindir oromgohda yangi do'stlar davrasi-da, yana biron qishloqda bobo-buvijonlarining purhikmat pand-nasihatlaridan bahra olib yayramoqda.

Men esa Pirimqul Qodi-rovning «Yulduzli tunlar» asa-rini maroq bilan mutolaa qil-moqdaman. Undagi har bir so'z go'yo jon-lidek tuyula-di. O'qiy boshlashim bilan xud-di men ham o'sha davrga tushib qolgan-dek, jang-u jadal-lar ko'z o'ngimda bo'lib o'tayotgandek tuyuladi. Kitobga muhabbati, ahli ayollariga hurmati haqi-da o'qib, Zahiriddin Muham-mad Boburga ixlosim yanada ortdi. U barchaga vafo qildi. Biroq unga vafodolar kam

bo'ldi. Ana shunday vaqtlarda Hazrat Bobur qog'oz qorala-di, zamona ahlining ishlari-dan zardob yutdi. Avvalo, ana shunday bebaho asar muallifi Pirimqul Qodirovdan min-natdorman. Siz aziz tengdosh-larimga ham ta'til davomida bu asarni o'qib chi-qishni tavsiya qilaman. Ishonavering, vaqtingiz hech ham zoye ketmaydi.

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi



SARDORLIK SARI O'N QADAM

Toshkent viloyati, «Kamolot» oromgohida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi sardorlar o'rtasida «Yil sardori - 2016» respublika ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda yurtimizning barcha hududlari-dan kelgan 140 ga yaqin sardorlar ishti-rok etishdi. Tadbir davomida bir-biridan qiziqarli intellektual o'yinlar, «Iste'dod shou», «Sehrlil qalam», «Oltin qalam» kechalari, «Reja tuzamiz va loyiha yaratamiz», «Sardorlik sari o'n qadam», «Men jurnalist bo'lmoqchiman» kabi qat-or mavzularda mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, yoshlar «Men sar-dorman», «Iqtidor va qobiliyat», «Intel-lektual ring» va «Tashabbus» shartlari bo'yicha bellashdilar.

Yakunda Xorazm viloyatidan Ruxsora

Masharipova 1-o'rin, qoraqalpog'istonlik Gavhar Tagebergenova 2-o'rin, Jizzax viloyati vakili Saidjon Eshboyev 3-o'ringa munosib deb topildi.

«Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi tomonidan g'oliblar va faol ishtirok et-ganlar diplom hamda «Kamolot kutub-xonasi» rukni ostida chop etilgan eng sara kitoblar bilan taqdirlandi.

Marhabo G'AFUROVA,
«Kamolot» YOIH Bekobod tuman bo'limi faoli

gandim, go'yo...

Ko'zimni ochganimda, tepamda qo'shni dugona-larim Marhamat va Muhar-ram turishardi. Biri yutib yuborgan suvimni chiqarish uchun qornimni tez-tez bo-sar, ikkinchisi esa bo'sh-shan-gan oyoq-qo'limni uqalash bilan ovora edi. O'zimga kelganimda ulardan birinchi so'raganim chelak bo'ldi...

Uning oqib ketganini eshitib, achindim. Bir de-vor qo'shni bo'lgan dugo-nalarim suvsiz idishlarga suv to'ldirib berishdi. Kun asrdan oqqan. Qalin suv sepilgan hovlini tuproqning yoqimli hidi tutdi...

Oradan shuncha yillar o'tsa-da, meni cho'kishdan asrab qolgan oqibatli dugo-nalarimni sira unutmadim. Qachon qishloqqa yo'lim tushsa, albatta, ular bilan ko'rishaman. Uch dugona o'sha voqeani miriqib eslay-miz.

Nodira NAZAROVA



Bolajonlarning ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yurtimizdagi ko'plab so'lim go'shalarda yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil qilingan.

«KOINOT»DAGI SAYYORALARGA AYOHAT

Shulardan biri Ohangaron tumani-ning tog'li hududi – Chet-suv qo'rg'onida joylashgan «Koinot» sog'lomlashtirish oromgohidir. Yoz mavsumida bu yerda 3 navbatda jami 930 nafar o'g'il-qiz dam olar ekan. Oromgohda hordiq chiqarayotgan bolalarning aksariyati «O'zbekko'mir» AJ tizimida mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilarning farzandlaridir.

– Oromgohimizda bolajonlarning bilimni yanada mustahkamlashi va jismonan chiniqishi uchun barcha sharoit muhayyo. 2000ga yaqin zarur adabiyotlar bilan ta'minlangan kutubxona, internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar, sport maydonchalari, suzish havzasi ular ixtiyorida. Ayniqsa, mashg'ulotlarning tabiat qo'ynida noan'anaviy tarzda o'tkazilishi bolajonlarga olam-olam zavq ulashmoqda, – deydi muassasa rahbari Ma'mura Usmonova.

Oromgoh «Koinot» deb atalgani uchun guruhlariga sayyoralar nomi berilgan.

Biz bolalarning taassurotlari bilan oshno bo'lish maqsadida 5-sayyora tomon yo'l oldik. Gulbahor Nidojeva yetakchilik qilayotgan mazkur guruh «Mars» nomi bilan atalar ekan.

– Sayyoramizda 28 nafar o'g'il bola dam olmoqdamiz, – deydi Nodirbek Usmonaliyev. – Ko'plab do'stlar ortirdim. Dam olish bilan birga sport, ingliz tili, tasviriy san'at kabi bir qancha to'garaklarga qatnashyapmiz. Shuningdek, bu yerda turli tadbir va qiziqarli uchrashuvlar, sport musobaqalari ham o'tkazib kelinayotgani menga juda yoqdi.

Ha, chindan ham bu joylar ertakmonand go'zal go'sha ekan. Havoning salqinligi, tog' giyohlarining shifobaxsh tarovati, bolajonlarning sho'x-shodon kulgilari inson ruhiyatiga ilqlik baxsh etganday bo'ladi, go'yo.

Jamoliddin ABDULLAYEV

TAASSUROT-LAR O'ZGACHA

«O'zbektelekom» AK Buxoro shahar filialiga qarashli «Yosh aloqachi» oromgohida ayni kunda 120 nafar bola dam olmoqda. Zamonaviy uslubda jihozlangan xonalar, oshxona, suv havzasi, sport maydonchalari ular ixtiyorida.

«Kichkintoy», «Kamalak», «Kamolot», «Orzu» guruhlariga 29 nafar pedagog-murabbiylar birlashtirilgan. «Mohir qo'llar», «Yosh musavvir» kabi to'garak mashg'ulotlarida bolajonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda. Kun tartibiga kiritilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar turfa mavzularda o'tkazilib, o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. «Biz giyohvandlikka qarshimiz» tadbirida namoyish etilgan sahna ko'rinishida «Orzu» guruhi a'zosi Habibulloh G'afurjonov

ochib berdi. Shuningdek, «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur», shiori ostida sport muso-



AMUDARYONING ZILOL TO'LQINLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi bugun o'quvchilar bilan gavyum.

Sabohat Shukrullayeva, Elmira Indirova, Nasiba Ibragimova, Maftuna Gulmanova singari o'quvchilar markazning faol a'zolaridan sanaladi. Bu qizlar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda g'olib bo'lib, tanlovning Respublika bosqichida qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Bu borada o'g'il bolalar ham qizlardan qolishmaydi. «Texnik ijodiyot» yo'nalishida o'tkazilgan «Katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellari» bo'yicha ko'rik-tanlovda 56-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shohrux To'raboyev esa «Qog'ozdan yasalgan hajmli samolyot modellari» bo'yicha, shu maktab o'quvchisi Asadbek Arabboyev esa «Penoplastdan tayyorlangan uchar qanot rusumli katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellari» bilan qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladi.



Ta'til kunlarida markaz uslubchisi Sh. Xudayberganov tomonidan tayyorlangan «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur» bayram tadbirida barcha to'garak a'zolari faol ishtirok etishdi. Ayniqsa, har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan «Barkamol avlod» bolalar haftaligida o'quvchilarning ijodiy ishlaridan tashkil topgan ko'rgazma bolalarning ko'zlarini quvontirdi.

Har bir o'quvchi ijodi, o'rganyotgan hunari bilan barchani qoyil qoldirishga intiladi. «Ijodim – Vatanga muhabbatim» mavzusidagi «Yilning eng yaxshi ixtirochisi» ko'rik-tanlovida «Texnik ijodiyot yo'nalishi» bo'yicha 40 nafar yaqin o'quvchilar qatnashib, «Boshlang'ich texnik modellashtirish» to'garagining 3 nafar a'zosi Respublika bosqichida qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Bu bosqichda esa 1-o'rin Ma'murjon Saidovga, ikkita 2-o'rin Jamshid Bobojonov hamda Og'abek To'rayevlarga nasib etdi.

«Yosh qalamkash» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida Abror Hayitboyev 2-o'rinni olgan bo'lsa, Nodira Jumaniyozova faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlanishdi.

Qoraqalpog'istonlik o'quvchilarning yutuqlari chindanda maqtovga arzigulik. Astoydil intilsangiz, siz ham bundan-da yuqori natijalarga erishishingizga ishonchimiz komil.

Ozoda TURSUNBOYEVA

tengdoshlariga giyohvandlikning kelib chiqishi va uning salbiy oqibatlarini ijro etgan ro'li orqali ishonarli tarzda

baqasi uyushtirildi.

Oromgohda musiqa bo'yicha murabbiy Jobir Shoyimov, jismoniy tarbiyadan Alisher Xolmurodov va suv havzasi rahbari Behruz Shomurodov tomonidan har kuni qiziqarli viktorinalar tashkil lashtiriladi. Ayniqsa, ajoyib tarzda o'tgan «Suv qiroli» va «Suv qirolichasi» musobaqasi bolajonlarga unutilmas onlarni hadya etdi.

Bu maskanda Shohsanam O'ktamova, Ozoda Jalilova, Gulchehra Rahimova, Shahnoza Ahmedova, Behzod Sa'dullayev, Norjon Badriyeva, Mehriya Fozilova hamda Nafisa Salomovadek mehribon va fidoyi tarbiyachilar dam oluvchilarning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun tinim bilishmaydi. Bolajonlarning yuz-ko'zlaridagi shodlik namunasi ustozlarning fidokorona mehnatlari samarasi bo'lsa, ne ajab?!

NURBEK

Har bir inson bolalik chog'ida qaysidir kasb egasi bo'lishni orzu qiladi. Kimdir uchuvchi, kimdir shifokor, yana kimdir esa quruvchi bo'lib, shaharlar bunyod etsam, deydi.

ISTE'DODLAR NAVOIYDA BELLASHDI

Bolaligimda men ham barcha tengdosh do'stlarim qatori ko'p narsalarga qiziqardim. O'rtoqlarim mahallamizdagi o'yingohda koptok tepishni yoqtirsa, men uchun musiqa, kuy-qo'shiqqa bo'lgan muhabbat har narsadan ustun edi. Murg'ak qalbimda san'atga mehr uyg'onganini payqagan otam meni qishlog'imiz markazidagi musiqa maktabiga yetaklab borgan. To'g'risini aytсам, bu joyni tashqaridan ko'rgan odam musiqa maktabi ekanligiga sira ishonmasdi. Eski va pastqam bu bino anchagina qarovsiz holga kelib qolgandi. Xonalari tor, qorong'i, qishda esa juda sovuq bo'lardi. Nafaqat biz bolalar, balki ustozlar ham bunday sharoitda mashg'ulot o'tishga qiynalardi.

Quvonarlisi, qishlog'imizda Istiqlol tufayli muhtasham, barcha sharoitlarga

ega bo'lgan musiqa maktabi bunyod etildi. Davlatimiz rahbarining «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori asosida barpo etilgan ushbu maskanda ayni paytda ko'plab san'atsevar o'quvchilar musiqa sir-asrorlarini mukam-

mal o'rganayotir. E'tiborlisi, farzandlarimiz ham ko'rsatilayotgan bu kabi g'amxo'rliklar-



ga javoban turli nufuzli xalqaro tanlovlarda, musiqa festivallarida ishtirok etib, o'z iqtidori bilan dunyo ahlini hayratga solmoqda. Bu ham bo'lsa, Mustaqillikning yurtimiz yoshlariga bergan cheksiz imkoniyatidir.

Kuni kecha Navoiy shahrida bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari o'rtasida «Akademik va estrada ijrochiligi» tanlovining mamlakat bosqichi bellashuvlarini kuzata turib, Istiqlol farzandlarining iste'dodiga yana bir bor tahsinlar aytdik. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan 208 nafar o'quvchi-yoshlar 23 nominatsiya bo'yicha o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi. Yakunda 57 nafar o'quvchi 3-o'rinni, 37 nafari 2-, 21 nafari esa 1-o'rinni egalladi. Quvonarlisi, ular orasida

Navoiy shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Anatoliy Nazarov ham bor.

– Mana uch yildirki, ushbu maktabning estrada vokal yo'nalishida tahsil olaman. Ta'lim maskanimizda biz yoshlarning musiqa sir-asrorlarini puxta egallashimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kelajakda nufuzli xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lib, ustozlarim ishonchini oqlayman, – deydi Anatoliy.

Tanlov yakunida ishtirokchilar tomonidan Vatan, tinchlik, do'stlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar yangradi.

Sa'dullo TURSINOV

LESSON 97

FILMS AND TV

Write the numbers 1 to 6 next to the correct words.

- | | |
|------------------|---|
| Cartoon | 1 |
| Musical | — |
| News | — |
| Weather forecast | — |
| Interview | — |
| Documentary | — |



Engliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

NOUN OR VERB?

- I opened the ... , walked up the ... and rang the
- We had to ... six flights of stairs to get to her flat because the ... wasn't working.
- I have got a great ... from my balcony.
- Do you own the flat or do you ... it?
- I'm living in the house now but it actually ... to my brother. He bought it two years ago. It was in very bad ... then, but he spent a lot of money on it.
- It costs a lot of money to ... a house when you live in a cold climate. Central ... is usually quite expensive.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

RIDDLES (Topishmoqlar)

Dear children, translate these riddles and find the answer.

It hasn't feet but can run,
It hasn't wings but can fly.



It can open the door
without hands and feet.
What is it?




Translated by Zilola JAMOLOVA,
Jizzakh region

SUMMER HOLIDAY

We have long holiday in summer,
We go to the mountain to grandmother.
It is very well in hot weather,
We can swim and eat ice-cream.

But dear friends don't forget,
Read the books in the light.
If you finish two, three books,
You will be clever as your friends.



Prepared by Dinora SHAKIROVA

PARVOZIMGA QANOT O'ZING

Go'zal yurtim jannatmakon,
Har bir go'shang bog'-u bo'ston.
Mening uchun tengsiz doston –
O'zbekiston, O'zbekiston!

O'zbekiston ona diyor,
O'g'il-qizlaring baxtiyor.
Yashagin mangu barqaror,
O'zbekiston, O'zbekiston!

Parvozimga qanot o'zing,
Da'vat, chorlov har bir so'zing.
Xizmatingga shaydir qizing,
O'zbekiston, O'zbekiston!

Umida RAHMATULLAYEVA,
Yunusobod tumanidagi
220-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



Qalbmida bir his bor yonib turadi,
Yuragim daryodek goh jo'sh uradi.
Bog'larim doimo yashnab turadi,
Bu mening Vatanim – O'zbekistonim!

Yoshlar yurt dong'ini doston qiladi,
Bog'bonlari bog'in bo'ston qiladi.
Hamisha barchani hayron qiladi,
Bu mening Vatanim – O'zbekistonim!

Sitora TO'XTAMURODOVA,
Samarqand viloyati, Toyloq
tumanidagi 48-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi



OSOD ZAMIN, HUR DIYOR!

Ozod zamin, hur diyor,
Bundayin yurt qayda bor?!
Osmoni keng, musaffo,
Havosi dardga davo.

Do'stim, aytayin sizga,
Asraylik bu Vatanni.
Allohim berdi bizga,
Jannatdayin chamanni.

Ozod yurtda mardlarcha,
Yurt sha'nini saqlaymiz.
Tuprog'in ko'zga surtib,
O'z burchimiz oqlaymiz.

Zuhra MAMADALIYEVA,
Andijon viloyati, Jalaquduq
tumanidagi 30-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

AKALARIM BILAN DO'STLASHMOQCHI BO'LGANIM

Shunday qilib, oyijonimnikiga jo'nadik. Enajonim bir tandir non yopdi. Ikkita jajji singlimga oz-oz jiza solib, kulcha nonlar ham yopdi. Bobojonimni bilasiz-ku, bir qarasan-giz juda saxiy, qo'li ochiq, uydagi hamma narsalarni bo'lishib yeylik, deydi. Yana bir qarasang, ishlar juda chatoq, bitta mayiz yoki bir dona chala pishgan o'rikni ham birovga bergisi kelmaydi. Oyijonimnikiga qarab boryapman-u ikkilanib to'xtab-to'xtab qolyapman. Borayotgan joyimizda o'zlariga joy yetishmaydi. Katta xona, bir tomonda o'choq, o'rtada yuvinadigan obrez, to'rdada g'uj bo'lib yotishadi. O'rtada yangi tug'ilgan, endigina jilmayadigan, qiqirlab kuladigan Donoxon singilchamning beshigi.

Beshikning o'ng tomonida oyijonim, o'gay otam, singillarim Obida, Oyshaxonning joyi. Chap tomonda o'gay akam Abdusalil, undan berida Abdusalil va mehmon bo'lib borganimda, bir qo'lim bilan beshikni ushlab men yotaman. Ana shu uyga endi butunlay yashash uchun bir qo'limda bobom bergan mevalar, bir qo'limda daftar, qalam solingan papka bilan boryapman. Ha, yana bir gapni aytib olay. Biz Abdusalil bilan bir kun o'rtoq bo'lsak, bir kun urishib qolamiz.

Xayriyat, hammalari uyda ekan. Abdusalil akam molxonada, Abdusalil «Non bermasang, o'tinni yor-mayman», deb arazlab o'tiribdi. Turishga holi yo'qroqqa o'xshaydi, oyijonim yotibdi. Oyshaxon bilan Obidaxon singlim sovuq tanchaga oyog'larini tiqib o'tirishibdi.

– Akajonim keldi.
– Enajonim keldi.

– Men oldin ko'rdim, – deyishib, singilchalarim sakrab-sakrab o'ynay boshlashdi. Oyijonimning yuzi yorishgandek bo'ldi.

– O'g'lim, azamatim, bir achomlay, qara, biram ozib ketibsan, bo'ying ham bir qarichga o'xshab qolganday.

Ana shu gaplarni aytib, oyijonim ikki kafti bilan yuzlarimni ohista-ohista silab bag'riga bosganicha jim bo'lib qoldi. Enajonim odatiga ko'ra qo'lini baland ko'tarib duo qildi:

TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI

(Qissa)



– Askarga ketgan o'g'illaringiz omon qaysin. Bemahal o'lim, quruq tuhmatdan o'zi saqlasin.

– Abdusalil, – deb chaqirdi oyijonim, – mehmonlar keldi, tezroq chiq. O'choqqa lovvlatib olov yoqib yuborgin.

Katta akam «Xalilingizga ayting, olovni ertalab yoqqanman, yetadi», deb qo'ydi. Oyijonim Abdusalilga iltimos qilgandi, u: «Ovqatni ko'pini Jalilga berasiz-u, ishni menga yuburasizmi», deb javob qaytardi.

Endi oyijonim atrofimizda parvona bo'layotgan Oyshaxon singlimga: «Hech bo'lmasa olovni sen yoqqin»,

deb iltimos qilgan edi, Oyshaxon ham yumshoqqina qilib, «Oyijon, men olov yoqishni bilmayman-ku», deb enajonimning tizzasini mahkam quchoqlab oldi.

Aytganday, men sizga aytman. Urush boshlangandan buyon uylarida gugurt yo'q. Olov yoqish uchun bobomning shapalog'idek temir parchasiga chaqmoq tosh ursangiz, uchqun chiqib pastga qo'yilgan paxtani lov etib yondirib yuboradi. Olovni gurillatib yoqib yubordim. Keyin suv keltirish mash-mashasi boshlanib ketdi.

Suvni Murod boboning bog'idagi katta hovuzdan keltirishar ekan. Suv olib kelishga Abdusalil ham, Abdusalil ham, hatto har kuni akalariga qo'shilib suvga boradigan Oyshaxon ham rozilik berishmadi.

Qiziq, juda g'alati bo'lyapti. Hammasi qaysar. Ilgari bunaqa emasdi, shekilli. Buning sababini keyinroq bildim. Voy-bo', katta janjallar bo'lib o'tgan ekan. O'gay akam tug'ay-tug'ay deb turgan sigirni sotib, puliga eshak olaman, debdi. Oyijonim ko'nmabdi. Sigirni sotsang, hammamiz ochimizdan o'lamiz. Sigirni, soddigani qo'ymayman, debdi.

Abdusalil akasiga qo'shilib:

– Akam ikkalimiz sotishga qaror qilganmiz, sigir otamniki, – deb endi ikki aka-uka oyijonimga do'ura boshlabdi. Oyijonim sigirning arqonini beliga bog'lab, sotmaysan, deb qattiq turib olibdi.

Aka-ukalar belidagi arqonga qo'shib bechora oyijonimni ham ko'chaga sudray boshlashibdi. Qo'rqib ketgan singilchalarim dod-faryod qilib qo'shnilarniki-ga yuguribdi. O'gay otamning o'gay akasining Tursunboy polvon degan o'g'li bor ekan. O'sha yugurib chiqib, sudragan-

cha akalarimni ko'chaga chiqarib tashlabdi. Oyijonim o'shanda lat yegan ekan.

Suv keltirdik, choy qaynatdik. Tanchalarga cho'g' solib, qaldirg'och bolalaridek atrofiga o'tirdik. Enajonim katta dasturxon yozdi. Zog'ora nonlarni hammamizga ulashib chiqdi. Bobojonim sal xasisroq bo'lsa ham, mayiz bilan o'rikni ko'proq bergan ekan. Mazza qilib yeya boshladik. Buning ustiga enajonim yana bir xursand qiladigan gapni aytib yubordi. Osh damlash uchun palovning xarajatini qilib kelgan ekan.

– Palov?! – hayron bo'lib so'rashdi akalarim.

– Ha, palov pishiramiz.
– Enajon, bizda go'sht, yog', sabzi ham yo'q-ku.

– O'g'illarim, o'zim olib kelganman. Bobojonlaring hammasini taxt qilib yuborgan.

– Rostdan ham guruch olib kelganmisiz? – ana shunday qisqa-qisqa savol-javoblar bo'lib o'tgandan keyin enajonim hammamizga ish taqsimlab chiqdi. Abdusalil o'tin tayyorlaydigan, Oyshaxon ayvoni supuradigan, Obidaxon beshikdagi chaqaloqni yupatib turadigan bo'ldi. Men qozonga o't yoqdim. O'gay akam sabzi to'g'raydigan bo'ldi.

– Yo'q, – dedi Abdusalil boshini chayqab, – akam sabzi to'g'ramasin. Yarmini yeb qo'yadi.

– Men qachon yebman? – jahl bilan so'radi akam.

– Yegansan, hamisha yegansan. Yemasang, bitta sabzini bildirmasdan yenging ichiga yashirib ko'chaga olib chiqib, o'sha yerda yegansan.

Qiziq bo'ldi. Juda-juda qiziq bo'ldi, akam kutilmaganda shunaqangi zavq bilan kuldiki, uyimiz quvonchga, shodliklarga to'lib ketganday bo'ldi. Kulisha-kulisha taomni tayyorlab, xursandchilik bilan palovxo'rlik qildik. Goh-goh akalarimning ko'zlariga qarab qo'yaman.

Xayriyat, yuz-ko'zlarida mamnunlik barq urib turardi.

(Davomi bor)

Buxoro viloyati, Kogon shahar bolalar va o'smirlar sport maktabi-dan mashg'ulotlar reja asosida olib borish bilan birga turli tadbirlar, musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. «Doping» dan saqlaning!», «Qullikka rozi bo'lmang», «OITS - asr vabosi», «Ogohlikka da'vat - davr talabi» kabi davra suhbatlari va seminarlar shular jumlasidandir.

OLIMPIYA O'YINLARI SARI



Maskan tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan futbol bo'yicha yoshlar jamoasi mamlakat miqyosidagi musobaqalarda muntazam ravishda sovrindorlar safidan o'rin egallab kelmoqda. Umidli futbolchilarni kashf etishda murabbiylardan Firdavs Ravshanov hamda Fuzuliy Xayrullayevning mehnati cheksiz.



Shuningdek, boks bo'yicha Halimbek Utegenov O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi, sport ustasi. U o'tgan yili o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida kumush medal, Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida boks bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida bronza medalni qo'lga kiritdi. U ayni kunda terma jamoa tarkibida Argentinada o'tkaziladigan o'smirlar Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rmoqda. Yana bir bokschi, O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi Shahobiddin Zoirov 2015-yilda Bangkok shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha kattalar o'rtasida Osiyo chempionatida kumush medal sohibi bo'ldi. Xitoyning Kunian shahrida o'tkazilgan Osiyo va Okeaniya qo'shma litsenzyon chempionatida 52 kg vaznda chempion bo'lib, XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Oliy toifali murabbiylar Shuhrat Miraliyev va Istam Kabinov ham shogirdlari yutuqlaridan quvonchlarini cheksiz.

shohibi bo'ldi. Xitoyning Kunian shahrida o'tkazilgan Osiyo va Okeaniya qo'shma litsenzyon chempionatida 52 kg vaznda chempion bo'lib, XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Oliy toifali murabbiylar Shuhrat Miraliyev va Istam Kabinov ham shogirdlari yutuqlaridan quvonchlarini cheksiz.

Shukrulla G'ULOM

Poytaxtimizda shaxmat va shahka bo'yicha «Biz - aql-idrokli oilalarimiz» musobaqasining Toshkent shahar bosqichi yakunlandi.

OILAVIY CHEMPIONLAR

«Mahalla» xayriya jamoat fondi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Toshkent shahar hokimligi hamda qator tashkilotlar tomonidan Vatanimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan tumirda 22 ta oilaviy jamoa o'zaro bahslashdi.

Shayxontohur tumanidan Yo'ldoshevlar 1-, Olmazor tumanidan Eshonxo'jayevlar 2- va Yashnobod tumanidan Hoshimovlar oilasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblarga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.



G'ALABA SHUKUHI

Aziza Tursunova Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 17-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi.

U sportning kate va shaxmat turlari bilan muntazam shug'ullanib keladi. O'tgan yili Koreya Respublikasida bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida munosib ishtirok etib, yakunda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Maktabda o'tkazilgan «Yil o'quvchisi» tanlovida 1-o'rinini egalladi. Uning muvaffaqiyatlaridan maktabimiz direktori Alimardon Jumayev ham juda mamnun. Men ham Azizaga ustoz sifatida uning yutuqlaridan faxrlanib, ko'ngil tilaklarimni she'rga solishga harakat qildim.

Yuzingdan taralar ibolar,
Ko'ksingda medallar ham yangi.
Olisdan keladi sadolar,
G'alaba shukuhin jarangi.



Aziza shu yilning 11-18-iyul kunlari Eronda yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan xalqaro shaxmat musobaqasida faol ishtirok etib, yana bir bor o'z iqtidorini ko'rsatdi.

Balandga ko'targin bayrog'ing,
Sen uchun doimo omad yor.
Qutlaydi barcha do'st, o'rtog'ing,
Vatanning tuprog'i madadkor.

Bahora MELIBOYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumanidagi
17-IDUM o'qituvchisi

YOSHLARNING SEVIMLI MASKANI

Istiqlol yillarida yurtimizda yosh avlodni har jihatdan sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ular o'rtasida sportni ommaviylashtirish borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmogda.



Mamlakatimizning chekka-chekka hududlarida barpo etilayotgan zamonaviy sport inshootlari farzandlarimiz iqtidorini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Navoiy viloyati, Uchquduq tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli bolalar va o'smirlar sport maktabi tuman yoshlarining sevimli maskaniga aylangan.

Bu yerda 400 ga yaqin o'g'il-qiz dzyudo, futbol, basketbol, voleybol, shaxmat, boks kabi sport turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda. Malakali murabbiylar qo'l ostida mahorat oshirayotgan yoshlar nufuzli musobaqalarda sovrinli o'rnlarni egallayotir.

Sh. KAZAKBAYEV

Qadrli o'quvchilar! Bolalar shoirasi va adibasi, «Gulxan» jurnali Bosh muharriri Zahro Hasanovaning nomi sizlarga juda yaxshi tanish. Siz uning «Kutilmagan sovg'a» hikoyalari to'plamini, «Topishmoq va tez aytishlar»ini, jajigina bolajonlar uchun yozilgan «Zukko alifbo» kitoblarini o'qigansiz.



Erkin ertalab tursa, Soat qolibdi to'xtab. Chiq-chiq degan sozini, Chalmay qolibdi uxlab. Ustasiga yugurdi, Olib uni qo'liga. Dedi: – Davosin topib, Solib bering yo'liga. Batareyka o'rmatdi, Usta aka shifokor. Qorin ochibdi-ku, deb Dardin topibdi tezkor. Endi har tong soati, Jiringlab uyg'otadi. Erkinjonni o'qishga, Kuy chalib kuzatadi.



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

ANOGRAMMA

K	U	C	H				M	O	N
Z	A	N					K	A	N
R	U	C	H			L	A	V	A
D	A	F					V	U	Z
P	A	R				R	A	K	
T	A					M	O	N	
R	O					Z	U	R	
V	A					H	O		
O	L			K	O	N			
M	A	K				R	I	K	

Aziz bolajonlar! Siz ushbu anogrammada ajratilgan katakchalarga shunday bo'g'in qo'yingki, ketma-ketligi bilan o'qiganda ikkita so'z hosil bo'lsin.



Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

Yaqinda «Noshir» nashriyoti shoira opan-gizning kichik yoshdagi bolalar uchun yoz-gan she'rlarini «Ko'zmunchog'im» deb nom-langan kitobga jamlab, katta nusxada chop etdi. Undagi she'rlar siz kabi bolalarning gap-so'zlaringiz va xatti-harakatlaringizni ku-zatib, zavq bilan yozilgan.

Ishonamizki, bu misralar o'quvchini ona zaminga, saxovatli tabiatga, sizga parvona bo'layotgan eng yaqin insonlarga nisbatan mehrlri, oqibatli bo'lishga undaydi.



TIPRATIKAN

Choshgoh devor tagidan, Tipratikan topdi dadam. Uni ushlashni o'ylab, Matoda yopdi ul dam.

Kirpi ko'p chaqqon ekan, Qochib qoldi yugurib. Dadam esa poyladi, Tutish uchun ulgurib.

Dedim: – Dada, qo'lingizni, Tikonlari tilmasin. Sizdan qochib boshasini, Shu devorga urmasin.

Dadam uni avaylab, Bir qutiga soldilar. Idishchada suv qo'yib, Ko'p tikilib qoldilar.

So'ng dedilar: – Qo'yib yubor, Mayli, yursin bemaol. Bizdan xafa bo'lmay ketsa, Qaytib kelar ehtimol.

Zahro HASANOVA

Azizbek, Saidjon va Omadbek degan do'stlar Bag'dod shaharchasining Boburshoh ko'chasida yashar ekan. Azizbek va Saidjon a'lochi, aqlli, ko'p kitob o'qishar, Omadbek esa dangasa ekan.

Bir kuni qo'shnilari bilan dasasing qulhati elas-elas Omad-bekning qulog'iga chalinibdi.

– Mahmud olim yangi bir mosla-ma ixtiro qilibdi, – deya asta so'z boshlabdi Akbar aka. – Uni qulog'iga taqqan in-sonning ishi



o'ngidan kelarmish.

Bu gapni eshitgan Omadbek «Endi barcha orzularimga erisha-man», deya xayol qilibdi.

So'ng qurilmani qo'lga kiritish uchun Mahmud akanikiga yo'l olib-di. Uyida hech kim yo'qligini bil-gach, ichkaridan o'sha moslamani o'g'irlab chiqibdi. Lekin u adashib, odamni kichraytirib qo'yadigan qurilmani olgan ekan.

Uyga kelib, moslamani asta tug-machasini bosibdi. Birdan Omad-bekka atrofidagi barcha narsalar kattalashganday tuyulibdi. Hay-

ron bo'lib oyna oldiga boribdi, ammo ko'zuga bo'yi yetmabdi.

U kichkina bo'lib qolganini sezib, ayasi, dadasini yordamga chaqi-ribdi, ammo hech kim kelmabdi.

Omadbek o'rtloqlarining yordam berishiga ishonib, Saidning uyiga boribdi.

Do'stlarining lupa bilan ishlab o'tirganini ko'rib, darrov stol usti-ga chiqibdi. Ular avvaliga o'rtog'ini tanimabdi. «Men Omadman», deya Saidning qulog'iga yaqin kelib, yig'lab-yig'lab nima bo'lganini gapirib beribdi.

Azizbek va Said-jon moslama yor-damida o'rtog'ini o'z holiga qaytarishibdi. Keyin uchovlashib Mahmud akaga bor gapni tushuntirishib-di va kechirim so'rashibdi. Olim esa:

– Nima ham derdim, seni jazo-lashga hojat qolmabdi. Jazoni olib bo'libsan, – debdi va uni kechiribdi.

– O'g'lim, seni do'stlaring darvo-za oldida kutib turishibdi, – oyi-sining bu yoqimli ovozidan Omad-bek uyg'onib ketibdi. Barcha ko'rganlari tush ekanligini anglab, do'stlariga peshvoz chiqibdi.

Shu tushdan so'ng, Omadbek ko'p kitob o'qib, xuddi o'rtloqlari kabi a'lochi bola bo'libdi. Endi unga hammaning havasi kelayot-gan ekan...

Pazanda qizga!




QATMA-QAT PISHIRIQ

Aziz va lozar qizlarjon! Ta'til kunlari-da ota-onangiz ishdan kelishiga chiroyli dasturxon tuzab, mazasi og'izda qoladigan shirinliklar-uchanqovbosdi sharbatlar tayyorlab qo'yyapsizmi? Biz bilamiz, siz, albatta, bunday foydali ishlarga qodirsiz. Bugun sizga navbatdagi shirinligimizni tavsiya etmo-qchimiz.

Kerakli masalliqlar: 5 dona tuxum, 1 piyola shakar, 1 piyola asal, 1 piyola salat yog'i, 2 piyola un, 1 choy-qog'ir sirkada so'ndirilgan iste'mol sodasi.

Tayyorlanishi: tuxumning oqidan sarig'i ajratib olinadi. Oqi 1 piyola shakar bilan bize holiga kelguncha ko'pirtiriladi. Tuxumning sarig'i bita-bittalab qo'shiladi. Iste'mol sodasi, yog', asal, 2 piyola un ko'pirtirgichda yaxshilab aralashiriladi. Qorilgan xamir teng ikkiga bo'linib, uning bir bo'lagi gaz patnisiga yoyiladi. Shu tarzda 2 ta xamir ham alohida-alohi-



da pishirib olinadi. Pishgan xamirlar to'rt bo'lakka bo'linadi.

Kremiga: 1 banka quyultirilgan sut, 200 gramm sariyog' qo'shilib, krem tayyorlanadi. Pishgan xamirlarni orasiga yaxshilab surtilib, usta-ma-ust qilib taxlanadi. Pishiriqning chetlari tekislanib, maydalangan ushloqlar ustiga sepiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi – 27721 Buyurtma – S 6563

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08